



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 1 - mart

VI-59-43-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-5152-sonli qarorining tumandagi ijrosi bo‘yicha tuman hokimining o‘rinbosari va ijrosi bo‘yicha mas‘ul tashkilot rahbarlarining hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-5152-sonli qarori 1-ilovasiga asosan, eksperiment tariqasida Angor tumanidagi “O‘zbekiston”, “Sharq guli”, “Navbahor”, “Navro‘z”, “Yangi turmush” mahallalaridagi 26 ta ko‘p qavatli uy-joylarni qamrab olgan 3 ta uy-joy mulkdorlari shirkatlarini maqbullashtirish hisobiga 1 ta “Angor Boshqaruv Servis” BSK boshqaruv tashkiloti tashkil etildi.

Ushbu Boshqaruv tashkilotini tashkil etish jarayonida Angor tumanidagi 3 ta iqtisodiy nochor shirkatlar tugatildi.

Ushbu shirkatlarning jami 2,9 mlrd. so‘m kredit qarzdorliklari mavjud bo‘lib, shundan muddati o‘tgan qarzdorliklari 2,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Debitor qarzdorliklari 204,3 mln. so‘mdan oshib ketgan. Shuningdek, ushbu shirkatlar aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha asosiy texnika va boshqa vositalar bilan ta‘minlanmagan hamda faoliyat olib borish uchun binosi ham mavjud bo‘lmagan. Faoliyati bugungi kun talabiga javob bermagan.

Bugungi kunda qarorga asosan tashkil etilgan Boshqaruv tashkilotining hozircha texnika vositalari mavjud emas.

Boshqaruv tashkilotining kundalik ta‘mirlash ishlarini olib borish uchun yetarli darajada mayda mexanizm va uskunalari bilan ta‘minlangan.

Boshqaruv tashkiloti faoliyat olib borish uchun alohida xona ajratilgan bo‘lib, to‘liq jihozlangan.

Boshqaruv tashkilotida 24 soat tun-u kun ishlaydigan avariya dispetcherlik xizmati tashkil etilgan bo‘lib, (tel: 76 31-21-820) aholining murojaatlarini joyida hal

etish choralari ko‘rilmoqda.

Shuningdek, telegram ijtimoiy tarmog‘ida Boshqaruv tashkilotining telegram gruppasi ochilib, barcha kommunal soha hamda mulkdorlar ulangan.

Bugungi kunda boshqaruv tashkilotida 5 nafar ishchi xodim faoliyat yuritmoqda. Shundan doimiy ishchilar soni 3 nafarni tashkil etadi.

“Angor Boshqaruv Servis” BSK boshqaruv tashkiloti tashkil etilgan 2021-yil noyabr oyidan 2022-yil mart oyigacha hududdagi ko‘p qavatli uylarni ta‘mirlash va obodonlashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, 2 ta ko‘p qavatli uylarning kirish yo‘laklari ta‘mirlandi, doimiy ravishda obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Boshqaruv tashkiloti tashkil etilmasdan oldin hududdagi shirkatlar tomonidan bir oyda o‘rtacha 2-3 mln. so‘m miqdorida majburiy badal mablag‘lari yig‘ilgan bo‘lsa, bugungi kunda tashkil etilgan “Angor Boshqaruv Servis” BSK tomonidan tomonidan bir oyda o‘rtacha 6-7 mln. so‘m majburiy badal mablag‘lari yig‘ilishi rejalashtirilmoqda. Boshqaruv tashkiloti tomonidan hududdagi boshqa tashkilotlar xususan, 2 ta maktabgacha ta‘lim tashkiloti, 2 ta maktab va 1 ta sog‘liqni saqlash muassasasiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar tuzish bo‘yicha kelishuv ishlari olib borilmoqda.

Angor tumanida 26 ta ko‘p qavatli uy-joylar mavjud bo‘lib, ko‘p qavatli uylarga tuman hokimining 2021-yil 30-oktabrdagi 215/8/109-Q/21-sonli qarori bilan “Angor Boshqaruv Servis” MChJ Boshqaruv servis kampaniyasi xizmat ko‘rsatib boshladi.

Ko‘p qavatli uy-joy fondini 2021-2022-yillar kuz qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha “Sharq guli” mahallasi joylashgan № 72-ko‘p qavatli uyning Respublika budjeti hisobidan 430 m² yo‘laklari beton qoplamasi bilan qoplangan.

“Sharq guli” mahallasida joylashgan № 72-ko‘p qavatli uyning 70 p/m, “Navro‘z” mahallasida joylashgan № 28-30-ko‘p qavatli uylarning 75 p/m irrigatsiya tizimi yangidan qurildi.

“Sharq guli” mahallasida joylashgan №75-ko‘p qavatli uyga 1 ta, “Navro‘z” mahallasida joylashgan № 30-ko‘p qavatli uyga 1 ta, № 10-ko‘p qavatli uyga 1 ta, “Navbahor” mahallasida joylashgan № 86-ko‘p qavatli uyga 1 ta jami bo‘lib, 4 ta ko‘p qavatli uyning hovlisiga bolalar maydonchalari o‘rnatildi.

Mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan “Sharq guli” mahallasi At-Termiziy ko‘chasida joylashgan № 71, 73, 75, 61, “Navbahor” mahallasi At-Termiziy ko‘chasida joylashgan № 13, 76, 78, 11-ko‘p qavatli uylarning fasad qismi joriy ta‘mirlandi.

Tuman hokimi o‘rinbosari A.Ishmurzoyevning uy-joylar qurishni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish

to‘g‘risida”gi PQ-5152-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida bergan hisoboti Kengashning Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida ko‘rib chiqilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24- moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimi o‘rinbosari A.Ishmurzoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-5152-sonli qarori ijrosi bo‘yicha Kengashning Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga bergan hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Ishmurzoyev)ga:

- yangidan tashkil etilgan boshqaruv tashkiloti faoliyatini aholi murojaatlari va kelib tushayotgan taklif va tavsiyalar asosida takomillashtirib borish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-martdagi “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6186-son Farmonining 11-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida tuman Kengashi huzuridagi “Xalqparvar” komissiyasi bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etsin.

Bunda jamoatchilik nazorati o‘rnatilishi uchun subsidiya to‘lanadigan fuqarolarni tanlab olish, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan fuqarolar ro‘yxatini shakllantirishga doir tegishli hujjat va ma‘lumotlarni “Xalqparvar” komissiyaga taqdim etib borish;

- o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlarning ochiqligi va oshkoraligini ta‘minlash maqsadida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan hamkorlikni kengaytirish;

- uy-joy qurilishi va ipoteka kreditlari, subsidiyalar ajratish borasidagi qarorlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha mutasaddi rahbarlar ishtirokida har chorakda tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyalariga axborot berish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligining matbuot xizmati (G.Jumayeva) “Xalqparvar” komissiyasining aholini uy-joy bilan ta‘minlash bo‘yicha deputatlik va jamoatchilik nazorati natijalari yuzasidan o‘tkaziladigan komissiya yig‘ilishlarini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar

tomonidan **har chorak yakunida** xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Sadatov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov